

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika va psixologiya kafedrası

5140800-Pedagolka psixologiya yo`nalishi 2-kurs talabalari uchun

“UMUMIY PSIXOLOGIYA ”

Fanidan

2-soatlik laboratoriya mashg`uloti

Muallif :

o`qituvchi M.Asranboyeva

Namangan - 2011

MAVZU: XOTIRA

Maqsad. Xotira jarayonida turli assosiatsiyalarning ahamiyatini aniqlash
Kerakli jihozlar. 50 juft soʻz va javob varaqalari.

Tajribaning borishi.

Koʻrsatma: Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib raqamlari qoʻyib chiqing. Men sizlarga 50 juft soʻzlarni bir marta oʻqib beraman. Soʻng men birinchi soʻzlarni oʻqib beraman, siz esa tegishli raqamga ikkinchi soʻzlarni yozib borishingiz kerak.

1. Barmoq — tirnoq.	26. Bosh — soch
2. Lolaqizgʻaldoq — qizil.	27. Koʻmir — qora
3. Choʻl — qoʻngʻiroq..	28. Gugurt — ochlik
4. Maktab — tanbeh.	29. Shirin — achchiq
5. Shamol — boʻron	30. Yomgʻir — loy
6. Soat — strelka	31. Shahar — koʻcha
7. Qand — shirin	32. Gʻildirak—yumaloq
8. Deraza — harf	33. Qalin — olomon
9. Baland — past	34. Mukofot — nafrat
10. Porox — portlash	35. Quyosh — yorugʻlik
11. Koʻz — qorachigʻ	36. Poezd — vagon
12. Oʻt — yashil	37. Boʻtakoʻz — zangori
13. Meva — sham	38. Tutun — qoida
14. Mukofot — jazo	39. Baland — past
15. Ayoq — sovuq	40. Ish — charchash
16. Kitob — sahifa	41. Institut—auditoriya
17. Ustara — oʻtkir	42. Pat—engil
18. Daftar — elkan	43. Papiros — abajur
19. Yorugʻ — qorongʻi	44. Mardlik—qoʻrqoqlik
20. Yoz — issiq	45. Oʻqish — bilim
21. Uy — tom	46. Qoʻl — kaft.
22. Qor — oppoq	47. Yoʻl — uzoq
23. Devor — chiroq	48. Parovoz — simyogʻoch
24. Sukunat — harakat	49. Sovuq — issiq.
25. Zahar — oʻlim	50. Yara — ogʻriq

Juft soʻzlar uchun kalit: № 1, 6, 16, 11, 21, 26, 31, 36, 41, 46 — butun — boʻlak;

№ 2, 7, 12, 22, 27, 32, 37, 42, 47 — predmet — xususiyat;

№ 3, 8, 13, 18, 23, 28, 33, 38, 43, 48 — odatdan tashqari birikma;

№ 4, 9, 14, 19, 24, 29, 34, 39, 44, 49 — kontrast;

№ 4, 10, 20, 25, 30, 35, 40, 45, 50 — sabab — oqibat.

Tekshirish. Men juft soʻzlarning birinchisini oʻqiyman. Agar siz ikkinchi soʻzni toʻgʻri yozgan boʻlsangiz, unda « + » qoʻying, notoʻgʻri yoki umuman yozmagan boʻlsangiz, unda « — » qoʻying.

Hisoblash. Har bir soʻz birikmasi boʻyicha (butun— boʻlak, predmet,

xususiyat, ...) tajribada ishtirok etgan barcha studentlar uchun o'rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi.

Xulosa. Material yaxshi esda olib qolinishi uchun, avvalo voqelikdagi ob'ektiv aloqalarni aniq va to'la aks ettiradigan bog'lanishlar sistemasini tanlab olish kerak.

2.2. Maqsad. Xotiraning tanlovchanlik tabiatini o'rganish.

Kerakli jihoz: So'zlar qatori

Ko'rsatma: Men sizlarga bir necha so'zlar o'qib beraman. Ularni qanday esda olib qolganlaringizni bir marta o'qiganimdan so'ng tekshirib ko'raman.

O'qib bo'lib, yozing degan buyruqdan so'ng esda olib qolgan so'zlaringizni yozib qo'ying.

1. Avtomobil`	11. O't yoqish	21. YOtoqxona	31. Kitob
2. Bolta	12. Ayriliq	22. Bolt	32. Torozi
3. Gugurt	13. Kasal	23. Radikal	33. Quvvat
4. Traktor	14. Doska	24. O'qish	34. Lektor
5. Maktab	15. Sessiya	25. Kongo	35. Senat
6. Uchrashuv	16. Sovun	26. Bulut	36. Qalam
7. Tayoq	17. O'qituvchi	27. Isitgich	37. Lava
8. Kombayn	18. Do'stlik	28. Parta	38. Patok
9. Daftar	19. Vint	29. Xo'rak	39. Ruchka
10. Soliq	20. Devor	30. Jayron	40. Qozg'oq

Tekshirish. Sekin-asta o'qing va to'g'ri esga tushirgan so'zlaringizni yoniga « + » qo'yib chiqing.

Hisoblash. Gruppadagi 20 so'zdan qanchasi esga tushirilganligi hisoblab chiqiladi. Qaysi so'zlar boshqalaridan ko'ra, yaxshiroq esda olib qolindi? Nima uchun?

1. 100%–75%–a'lo, 2. 75%–50%–yaxshi, 3. 50%–25%–o'rta, 4. 25%–0–past

Xulosa. Hamma so'z ham birdek esda yaxshi qolmaydi. Emotsional kuchli yoki ahamiyatli materiallar yaxshi esda olib qolinadi.

Tajribalardan kelib chiqadigan xulosa materialni o'rganish va takrorlashning ratsional tashkil qilinishi to'g'risida tavsiyalar bilan tugashi kerak. Mavzu talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashga, o'z xotirasini mukammallashtirishga, shuningdek o'qituvchiga o'z o'quvchilari xotirasini rivojlantirishga yordam beradigan bo'lishi kerak.

O'quv materiallarini puxta esda olib qolish, esda saqlash, shuningdek o'quv qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida xotiraning individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rmoq zarur.